



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.10.2025 yildagi PQ-296-son

Date of entry into force

08.10.2025

Additional information

Share

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI SAMARALI HIMOYA QILISHNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yish maqsadida qaror qilaman:

#### I. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish.

1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2026-yil 1-martdan boshlab raqamli markirovka tizimi joriy qilingan tovarlarning yaroqlilik muddati o'tgan bo'lsa, ularning savdosi ushbu tizim orqali avtomatik ravishda cheklanadi. Bunda raqamli markirovkalangan muddati o'tgan tovarlarga nazorat-kassa texnikalarida xarid cheki chiqarilmaydi.

2. Belgilansinki:

(a) 2025-yil 1-noyabrdan boshlab sanitariya-epidemiologik xulosa rasmiylashtirish maqsadida davlat sanitariya nazorati organi tizimidagi akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda o'tkaziladigan barcha sinovlar bayonnomalari elektron ko'rinishda "E-akkreditatsiya" axborot tizimining "E-laboratoriya" moduli orqali rasmiylashtiriladi hamda ushbu organning rasmiy veb-saytida xulosasi rasmiylashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining yagona onlayn reyestri yuritiladi;

(b) 2025-yil 15-oktabrdan 2027-yil 1-yanvargacha qadar tajriba tariqasida nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan iste'molchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda "sirli mijoz" va nazorat xaridi tadbirlarini o'tkazish tartibi joriy etiladi. Bunda mazkur tadbirlarni o'tkazish uchun nodavlat notijorat tashkilotning tegishli xodimi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Raqobat qo'mitasi) huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazining o'quv kurslarini tamomlaganligi to'g'risidagi maxsus sertifikatga ega bo'lishi lozim;

(v) nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida Raqobat qo'mitasining budjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) mablag'lari hisobidan ularga iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni tashkil qilish va sohadagi muammolarni o'rganish uchun davlat ijtimoiy buyurtmalari berish tarzida mablag'lar ajratib boriladi. Bunda:

(i) ushbu mablag'lar Jamg'armadan O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga o'tkaziladigan mablag'lar qismi hisobidan ajratiladi;

(ii) iste'molchilar murojaatlarini ko'rib chiqish hamda "sirli mijoz" va nazorat xaridi tadbirlarini o'tkazish uchun davlat ijtimoiy buyurtmalari berishda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini baholash mezonlari belgilanadi;

(iii) nodavlat notijorat tashkilotlarga davlat ijtimoiy buyurtmalari berish tarzida ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalanishni tashkil qilish uchun g'aznachilik nazorati o'rnatiladi.

3. Iste'molchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish samaradorligini oshirish maqsadida 2025-yil 1-dekabrden boshlab "iste'molchi — tadbirkor — nodavlat notijorat tashkilotlar — davlat organlari" tizimi joriy etiladi. Bunda:

(a) iste'molchilarning barcha murojaatlari Raqobat qo'mitasida ishga tushiriladigan "Iste'molchi murojaati" axborot tizimi orqali qabul qilinadi va barcha bosqichlarda monitoring qilib borish tizimi yo'lga qo'yiladi;

(b) "Iste'molchi murojaati" axborot tizimini Soliq qo'mitasining yagona axborot tizimiga integratsiya qilish orqali barcha tadbirkorlik subyektlariga iste'molchilardan murojaatlar kelib tushgani haqida xabar yuborish tizimi yo'lga qo'yiladi;

(v) iste'molchining "Iste'molchi murojaati" axborot tizimi orqali ro'yxatga olingan murojaati, birinchi navbatda, tadbirkor tomonidan Raqobat qo'mitasi nazorati ostida 10 kun ichida ko'rib chiqiladi, iste'molchi murojaati ijobiy hal etilmagan taqdirda, murojaatchining tanloviga ko'ra Qo'mitaga yoki nodavlat notijorat tashkilotlarga o'rganib chiqish uchun yuboriladi. Bunda:

(i) iste'molchi huquqlarining buzilishi holatlari mavjud bo'lganda, nodavlat notijorat tashkilotlar tadbirkorga ixtiyoriy tartibda huquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma beradi;

(ii) agar tadbirkor 10 kun ichida huquqbuzarlikni ixtiyoriy tarzda bartaraf etmasa, nodavlat notijorat tashkilotlar holat yuzasidan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha tegishli vakolatli davlat organlariga mazkur tizim orqali yoki sudga murojaat qiladi;

(g) Raqobat qo'mitasi iste'molchilarning tizimli muammolarini o'rganish va hal etish, nomuayyan doiradagi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish ishlarini amalga oshiradi.

4. Raqobat qo'mitasining yaroqlilik muddati o'tgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilishi shartligi belgilangan oziq-ovqat mahsulotlarini ularning ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan holda sotganlik hamda sotish uchun qabul qilganlik uchun ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha jarimalar miqdorini uch baravargacha oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Raqobat qo'mitasi ikki oy muddatda mazkur bandeda keltirilgan taklif yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyahasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida nodavlat notijorat tashkilotlarga davlat subsidiyalari, grantlar ajratish va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirish tavsiya etilsin.

## II. Qaror ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat.

6. Iste'molchilarning murojaatlarini o'z vaqtida qabul qilish va ko'rib chiqish maqsadida 1-ilovaga muvofiq davlat organlari va tashkilotlar uch oy muddatda o'z axborot tizimlarini "Iste'molchi murojaati" axborot tizimiga integratsiya qilishni ta'minlasin.

7. Iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilishni tashkil etish va yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Raqobat qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

10. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi H.S. Turaxujayev belgilansin.

11. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,  
2025-yil 6-oktabr,  
PQ-296-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2025-yil 6-oktabrdagi PQ-296-son  
qaroriga  
1-ILOVA

## O'z axborot tizimlarini "Iste'molchi murojaati" axborot tizimiga integratsiya qiladigan davlat organlari va tashkilotlar

### RO'YXATI

T/r	Davlat organlari va tashkilotlar nomi	Integratsiya qilinadigan tizim nomi
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi	cabinetpm2.gov.uz
2.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga	kb-business.gov.uz
3.	Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil	admbusiness.gov.uz
4.	Bosh prokuratura	1007.prokuratura.uz
5.	Soliq qo'mitasi	my.soliq.uz
6.	Raqamli texnologiyalar vazirligi	murojaat.gov.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2025-yil 6-oktabrdagi PQ-296-son  
qaroriga  
2-ILOVA

## Iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilishni samarali tashkil etish va yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha

### CHORA-TADBIRLAR DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.	"Sirli mijoz" va nazorat xaridi tadbirlarini o'tkazish uchun Raqobat qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazining o'quv kurslarida nodavlat notijorat tashkilotlarning xodimlarini o'qitish va ularga maxsus sertifikat berish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.	Idoraviy hujjat	2025-yil oktabr	Raqobat qo'mitasi

2.	Nodavlat notijorat tashkilotning "Sirli mijoz" va nazorat xaridi tadbirlarini o'tkazishga jalb etiladigan xodimlarini Raqobat qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazida o'qitish.	Amaliy chora-tadbir	Doimiy	Raqobat qo'mitasi
3.	Nodavlat notijorat tashkilotlarga iste'molchilar murojaatlarini ko'rib chiqish hamda "Sirli mijoz" va nazorat xaridi tadbirlarini o'tkazish uchun davlat ijtimoiy buyurtmalari berishda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini baholash mezonlarini tasdiqlash.	Idoraviy hujjat	2025-yil oktabr	Raqobat qo'mitasi
4.	Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan iste'molchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish, "Sirli mijoz" va nazorat xaridi tadbirlarini o'tkazish bo'yicha tajriba natijalaridan kelib chiqib, tegishli funksiyalarni nodavlat notijorat tashkilotlarga o'tkazish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Taklif kiritish	2026-yil dekabr	Raqobat qo'mitasi
5.	Sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish maqsadida davlat sanitariya nazorati organi tizimidagi akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda o'tkaziladigan barcha sinovlar bayonnomalarini elektron ko'rinishda "E-akkreditatsiya" axborot tizimining "E-laboratoriya" moduli orqali rasmiylashtirish hamda ushbu organning rasmiy veb-saytida xulosasi rasmiylashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining yagona onlayn reyestrini yuritish.	Amaliy chora-tadbir	2025-yil oktabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
6.	Raqobat qo'mitasining "Fair tech" yagona axborot tizimi doirasida iste'molchilarning barcha murojaatlarini qabul qilish va nodavlat notijorat tashkilotlarga yuborish, ko'rib chiqish jarayonlarini qamrab oluvchi "Iste'molchi murojaati" axborot tizimini ishga tushirish.  Bunda Raqobat qo'mitasiga iste'molchilardan kelib tushgan murojaatlarni avtomatik ravishda yagona axborot tizimiga o'tkazish va ijro jarayonini onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish maqsadida "Iste'molchi murojaati" axborot tizimini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, Bosh vazirning virtual qabulxonasi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, Bosh prokuraturaning axborot tizimlariga integratsiya qilish.	Amaliy chora-tadbir	2025-yil noyabr	Raqobat qo'mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi va Virtual qabulxonasi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ekologiya vazirligi, Soliq qo'mitasi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Savdo-sanoat palatasi
7.	"Iste'molchi murojaati" axborot tizimini Soliq qo'mitasining yagona axborot tizimi bilan integratsiya qilish orqali barcha tadbirkorlik subyektlariga iste'molchilarning murojaatlari kelib tushganligi haqida xabar yuborish tizimini yo'lga qo'yish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025 yil noyabr	Soliq qo'mitasi, Raqobat qo'mitasi
8.	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi <a href="#">Qonuniga</a> iste'molchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari va tartibini o'zgartirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Qonun loyihasi	2025-yil noyabr	Raqobat qo'mitasi, Adliya vazirligi
9.	Iste'molchilarning murojaatlarini onlayn qabul qilish, ko'rib chiqish va tezkor maslahat yoki javob berish tizimini joriy etish. Bunda zamonaviy va "aqlli" texnologiyalardan (sun'iy intellektdan) foydalangan holda iste'molchilarning murojaatlarini onlayn qabul qilish, ko'rib chiqish, tezkor maslahat va javob berish amaliyotini joriy etish.	Raqobat qo'mitasining veb-saytida va telegram botida rukn tashkil etish	2026-yil yanvar	Raqobat qo'mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi
10.	Raqamli markirovka tizimi joriy qilingan tovarlarning yaroqlilik muddati o'tgan bo'lsa, ularning savdosini tizim orqali avtomatik ravishda cheklash, nazorat-kassa texnikalarida tovar cheki chiqarilmasligini yo'lga qo'yish.	Amaliy chora-tadbir	2026-yil fevral	Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
11.	O'zbekiston Respublikasining " <a href="#">Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida</a> ", " <a href="#">Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida</a> ", " <a href="#">Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida</a> ", " <a href="#">Reklama to'g'risida</a> "gi qonunlariga tovar (ish, xizmat)lar nomi, yorliqlari, tamg'alari, texnik hujjatlari va reklamasida, shuningdek, firma nomida soxta yoki iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan belgilardan asossiz foydalanishning oldini olish maqsadida ekologik soflikni ifodalovchi so'zlar ("eko", "eco", "eko"), shuningdek, ushbu so'zlardan hosil bo'ladigan so'z birikmalari yoki mazkur so'zlarni o'z ichiga olgan so'zlardan foydalanishni qonun darajasida tartibga solishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Qonun loyihasi	2025-yil noyabr	Raqobat qo'mitasi, Ekologiya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrda PQ-4913-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi sohasiga xususiy sektorni jalb qilishning dastlabki yo'nalishlari quyidagi mazmundagi izoh bilan to'ldirilsin:

"Izoh: mazkur ilovaga muvofiq xususiy sektorga berilayotgan davlat funksiyalari bo'yicha tovarlar muomalasi sohasi 2035-yil 31-dekabr qadar tovar bozori sifatida qaralmaydi".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martdagi PQ-5031-son qarori bilan tasdiqlangan Tovar-xom ashyo birjalari faoliyatiga ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy etish va elektron tijorat faoliyatini izchil rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 2-pozitsiyasi "Mas'ul ijrochilar" ustunidagi "Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi" so'zlari "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi" so'zlari bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi "Aholini sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-son qarorida:

(a) 4-bandning uchinchi xatboshisidagi "Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi" so'zlari "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi" so'zlari bilan almashtirilsin;

(b) 5-banddagi "Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi" so'zlari "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi" so'zlari bilan almashtirilsin.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2025-y., 07/25/296/0902-son)*



Tezkor va qulay  
onlayn mikroqarz

100 mln

Kredit foizi: 26%-30% gacha  
Kredit muddati: 2-48 oygacha

